

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TO'G'RI REJALASHTIRISH KONSEPSIYALARI

Qurbonov Shuhrat Zarifovich

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolqda Talabalar mustaqil ta'limini to'g'ri rejalashtirishda metodologiya va turli konsepsiyalar haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: ta'li, masalalar, umumiylik, uzviylik, tayanch, metodologik, oddiylik, murakkablik.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются методология и различные концепции правильного планирования самостоятельного обучения студентов.

Ключевые слова: исследование, проблемы, общность, связность, основа, методологическая, простота, сложность.

ABSTRACT

This article discusses the methodology and various concepts in the proper planning of students' independent education.

Key words: study, issues, generality, coherence, basis, methodological, simplicity, complexity.

Talabalar mustaqil ta'limini to'g'ri rejalashtirish–o'qituvchining muhim vazifalaridan biridir. Biz dasturda mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzular bo'yicha taqdimotlar qilishni, belgilangan misol va masalalarni raqamlashtirilgan dasturlardan foydalanib, mustaqil bajarish va ishlashlarini talabalarga tavsiya qilamiz. Zamonaviy

innovatsion ta'lim ta'lim jarayoni samaradorligini ko'rsatib beruvchi omillardan biri-ta'limda axborot texnologiyalarini tatbiqidir. Ta'lim jarayonida elektron o'quv qo'llanma va darsliklardan foydalanish o'zining funksional mohiyatiga ko'ra ta'limning muhim vositasidir, u talabalarning faol hamda mustaqil ta'lim olishlariga turtki beradi, yakka tartibdagi va tabaqalashtirilgan yondashuvni ta'minlaydi.

Ilmiylik deyilganda texnika oliy o'quv yurtida o'tiladigantabiiy va aniq fanlarning turli bo'limlarining to'liq mazmuni fundamental fanlar bo'limlariga mos va to'g'ri kelishi, ya'ni: umumiylik, uzviylik, matematika tilining aniqligi, mazmunning mantiqiy qat'iyligi va boshqalar tushuniladi [1, 113- b]. Barcha asosiy tushunchalar esa aniq ta'rifga ega bo'lishi, teoremlar fanda umumiy qabul qilingan aksiomalarga va mantiq qoidalariga asoslangan holda isbotlanishi lozim.

Ta'limning metodologik yo'nalishi prinsipi esa ilmiylik prinsipi bilan uyg'unlashgan bo'lishi lozim. Aniq fanlar metodologiyasi deyilganda aniq fanlar metodlari yoki ular tadqiqot metodlarining tarixiy rivojlanishini kuzatish haqidagi ta'limoti tushuniladi. Ta'limning metodologik yo'nalishi-bo'lg'usi muhandislarda aniq fanlar ta'limi orqali bizni qamrab turgan haqiqiylikni o'rganish vositasi sifatida, moddiy dunyo bilan umumiy qonuniyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni real jarayon va ob'ektlarni matematik modellashtirish orqali ifodalovchi vosita fani sifatida qarashni shakllantirishni mo'ljallaydi.

Talabalarning psixologik tomondan o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berishning metodik tizimlariga e'tibor qaratish ham kasbiy faoliyatga yo'naltirishning muhim shartlaridan biridir. Buni tashkil etuvchilaridan biri deb, fanning mantiqiy tuzilmasi va o'quv materialini qabul qilishning ruhiy tomonlarini uyg'unlashtirish sharti deb hisoblashimiz mumkin.

Faqatgina mantiqiy xulosalar va mulohazalar ham talabalar tomonidan osongina o'zlashtirilavermaydi, ayniqsa formal-mantiqiy tizimga va aksiomatik metodga tayyor bo'lmagan birinchi kurs talabalarini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Buning uchun talabalarni qo'yilgan muammo hamda masalalarni echimlarini izlashda evristik usul va metodlarni qo'llashga, ilgari surilgan farazlarni mantiqiy

isbotlashga yoki rad qilishga, qisqasi aniq fanlar nazariyalarini mantiqiy benuqson shaklda tuzishga o'rgatish lozim. Bilimlarni qabul qilishning ruhiy tomoniga tayanadigan bo'lsak, u holda aniq fanlar nazariyalarini qat'iy ketma-ketlikdagi tuzilmasidan ba'zan chetlashish, dasturdagi murakkab bo'limlarni taqdim etishni keyinroqqa surib qo'yish ham zarurdir. Shuningdek, aniq fanlarning turli bo'limlarini taqdim etish tartibi oddiylikdan murakkablikka prinsipi bilan bog'liqdir. STEAM fanlaridan birinchi kurs talabalar asosiy, tayanch bo'lgan tushunchalarni o'rganishadilar Ikkinchi kursga kelib, esa ularga ixtisoslik va umumkasbiy fanlar o'rtasidagi aloqadrlik tushunchalari bilan tanishib borishadilar bu ikki kursda olingan bilim keyingi kursda ixtisoslik fanlarini o'rganishda kerak bo'ladi. Shuning uchun ham birinchi kurslarda STEAM fanlari umumiy tushunchalari taqdim etiladi [3, 57- b].

Ta'lim berish jarayonida fanlarning mantiqiy tuzilmasi va o'quv dasturlarini qabul qilishning ruhiy tomonini uyg'unlashtirish bilan abstraktlik o'rtasidagi bog'liqlikni kuzatib borish zarur.

Ta'lim oluvchilarning kasbiy yo'naltirishini amalga oshirishning muhim sharti– ta'lim jarayonida ularning ishtirokini tavsiflovchi faolliklari va mustaqil fikr yuritishlaridir.

Ta'limdagi faollik deyilganda ta'lim berishning faol metodlari, ya'ni muammoli, rivojlantiruvchi ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim berishdan foydalanish nazarda tutiladi. Bu erda talabalarning ijodiy faolliklarini rivojlantirish, kasbiy bilishga qiziqish, ilmiy izlanishga intilishlarini rivojlantirish maqsad qilib qo'yiladi. "Aniq fanlar ta'limida, ularni echish metodlarini egallashga o'rgatish ikkita maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim: aniq algoritmlarga va izlanishga o'rgatish" [5].

STEAMning ruhiy motivatsion aspekti deyilganda, shaxsni olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirib bevosita hayotga qo'llash orqali motivatsiyani kuchaytirish natijasi sifatida yondashish hamda STEAM fanlarini

o‘qitish jarayonida talabalar kelgusida egallashlari lozim bo‘lgan kasbiy faoliyatini

to‘liq tushunib qiziqishlarini rivojlantirish tushuniladi [7].

“Bilim berish jarayonining boshlanishida abstraktlikka kamroq e‘tibor qaratish zarur, doimo ilovalarni ko‘rgazmada saqlab, o‘quvchilar ularni tushunish qobiliyatiga ega bo‘lganlaridan keyingina sekinlik bilan aniqlashtirishga e‘tibor qaratish lozim”. Har qanday abstraktlik aniq misollar bilan tasdiqlangan va aksincha, xususiylikdan, aniqlikdan, amaliy misollardan abstraktlikka o‘tish ham tasdiqlangan bo‘lishi lozim, keyinchalik esa nazarda tutilayotgan fanlardan masalalarni echishda aniq birlamchi amaliy jihatdan tuzilgan holatda amalga oshirilaveradi. Yangi tushunchalarni kiritish motivatsiyalangan bo‘lishi lozim. Tushunchalarni ortiqcha aniqlashtirishga kamroq e‘tibor qaratish lozim, chunki bu ularni qo‘llashni chegaralashga olib kelishi mumkin [8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.R.Turdiyev, Keldiyorova M.G Ta’lim jarayonini tizimli yondashuv tizimli pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish Zamonaviy ta’lim. №12 2019-y. 31-37 bet

2. Краевский, В.В. Проблемы научного обоснования обучения (Методический анализ) Текст. / В.В. Краевский ; НИИ общей педагогики АПН СССР. М. : Педагогика, 1987. - 264 с.

3. Sh.R.Turdiyev Matematika va tabiiy fanlar negizida kasbiy kompetentlik hamda kreativlikni takomillashtiriш //Monografiya - “Интеллект нашриёти” 09.11.2021й

4. Shoxrux Razzoqovich Turdiyev. (2021). ORGANIZATION OF DUAL TRAINING THROUGH THE STEAM APPROACH IN HIGHER EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS (2767-3278), 2(10), 215–219. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp-02-10-39>

5. Turdiyev, S. R. (2021). Didactic principles of guiding theoretical knowledge from steam science into practice. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1597-1601
6. Shadiev R.D. The characteristics of the category concept and their comprehension - components of any understanding. //Science and world. *International scientific journal. №7(47).2017, Vol.II. P-66-68.(Impact factor-0,325).*
7. Shuhrat QURBONOV OLIY TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIM OLISHNING TURLI USULLARI VA ULARNING TASNIFLARI O'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, 2023, [1/8/1] ISSN 2181-7324
8. Primov T.I., Qurbonov S.Z. Matematik modellarni tuzishda variatsion tamoillar. "Academic Research in Educational Sciences". 2021, Volume 2, Issue 4.